

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Bizga ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu borada o‘qituvchining o‘rnini hech qanday vosita bosa olmaydi. O‘quvchilarning ravon va burro nutqini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o‘qituvchi nutqining ham o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqi ustida ham mukammal ishlashi va darslarini tashkil qilishda o‘quvchilarni barkamol hamda har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun puxta bilimli, o‘z fikrini chiroyli, ravon nutq qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilishi lozim.

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: DTS, boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, o‘quvchilar, nutq, nutqning shakllanishi, o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish, mustaqil o‘qish, metodlar, AKT.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Как известно, формирование речевой культуры учащихся младших классов является одной из важных задач, стоящих перед учителями начальных классов. В этом отношении никакой инструмент не заменит учителя. Роль речи учителя в формировании беглой и связной речи учащихся и их понимания мира неоценима. Поэтому, чтобы в совершенстве работать над собственной речью и организовывать свои уроки, учитель должен быть хорошо образован, хорошо разбираться в принципах красивой, плавной речи и уметь структурированно излагать свои мысли.

В статье рассматриваются методы формирования речевой культуры учащихся младших классов.

Ключевые Слова: ГОС, начальная школа, учитель, ученики, речь, формирование речи, чтение, внеклассное чтение, самостоятельное чтение, методы, ИКТ.

METHODS OF FORMING SPEECH CULTURE IN PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. As is known, the formation of speech culture of primary school students is one of the important tasks facing primary school teachers. In this regard, no tool can replace the teacher. The role of the teacher’s speech in the formation of fluent and coherent speech of students and their understanding of the world is invaluable. Therefore, in order to perfectly work on their own speech and organize their lessons, the teacher must be well educated, well versed in the principles of beautiful, smooth speech and be able to express their thoughts in a structured manner.

The article discusses methods of forming speech culture of primary school students.

Keywords: SES, primary school, teacher, students, speech, speech development, reading, extracurricular reading, independent reading, methods, ICT.

Kirish. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va

boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq matabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Biz tilini jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlantirib, bo'yitib kelgan ajdodlarning vorislarimiz. O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish maktab ona tili ta'limi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "nutq" "tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasidir", - deb ko'rsatiladi. "Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar"da nutqqa "insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi hamdir" deb qayd etiladi. Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqini o'stirish – ularda eshitish, anglash, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yo'lga qo'yiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva va K.Qosimovalar, 80-90-yillarida B. Turdiyev, A. G'ulomov, M. Qodirov, SH. Yusupova, B.To'xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovalar, 2000- yillarda A.Hamroyev, SH.U. Nurillayeva, O'. Ro'ziboyeva, G. M. Ahmedova, SH. Yuldasheva, U.Masharipova, H. Bakiyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur metodistlarning ayrimlari adabiyot darslarida, ayrimlari ona tili va o'qish darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish masalasiga doir qimmatli metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar. A.Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon va adabiy ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarida o'quvchilar nutqiy boyligining ahamiyatini aytib o'tganlar.

Q.Abdullayeva "1-sinfda nutq o'stirish" metodik qo'llanmasida o'quvchilarni tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish usullarini yoritgan bo'lsa, K.Qosimova «1-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash» qo'llanmasida lug'aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so'z yuritadi. B. Turdievning "Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum" nomli qo'llanmasida yozma nutqning umumiyligi nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bog'liq yozma ishlar, ish qog'ozlarini to'ldirish, bayon va insho yozishga o'rgatish masalalari yoritilgan. A. G'ulomov, M. Qodirovning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida nutq o'stirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq o'stirishga doir mashqlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. M.Asqarova rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan "Kichik yoshdagil bolalar nutqini o'stirish" nomli o'quv qo'llanmada asosan bog'cha yoshidagi bolalar nutqini o'stirish masalalari o'rganilgan. B.To'xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovalar yaratgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida bo'lg'usi mutaxassislarni maktab ta'limiga tayyorlashda grammatik mavzularga bog'liq holdao'quvchilar nutqini o'stirish, lug'atini bo'yitish metodikasiga alohida diqqat qaratilgan.

. Uzluksiz ta'lim tizimida til va nutqni farqlab o'rganish, ona tili darslarida nutqni bilim, ko'nikma va malakalar hamda ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlovchi vosita deb qarash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nutqiy bilim, ko'nikma va malakalarni uzviylik va uzluksizlikda ona tili sathlariaro aloqadorlikda izchil rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limining bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida nutq o'stirish o'qituvchi va o'quvchining nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va o'stirishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy faoliyatdir. O'quvchilar nutqini o'stirish hamisha pedagogik rahbarlikni talab etadi.

Metodlar. Tilning lug'ati qancha ko'p bo'lsa, fikr shuncha aniq ifodalanadi. Jumladan, har bir shaxsning o'z lug'at boyligi bo'ladi. Lug'atga boy kishining nutqi aniq, ravon bo'ladi, shuning uchun boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ham o'quvchilar nutqini so'z

108

bilan boyitishdir. Nutqni boyitishga qaratilgan metodikalar lug‘at ishlarini yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, o‘quvchilar lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Boshlang‘ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to‘g‘riligi ustida ishlash boshlang‘ich sinf O‘quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o‘qituvchining o‘quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Savod o‘rgatish davridan boshlab o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchi qancha ko‘p o‘qisa uning nutq madaniyati rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini shakllantirishda sinfdan tashqari_o‘qish o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarini o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarga o‘qish va qiroatxonlik saboqlarini berish, kitob bilan muomala qilish, kitob o‘qish qoidalari, kitobning muqaddas ekanligini his etish, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ularning ibratli ishlariga ergashish, salbiylardan nafratlanish, o‘z taassurotlarini tasvirli so‘zlab berish kabi mahoratlarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat.

O‘qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy – tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e’tiborga olinadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar asosan hikoyalar, ertaklar, topishmoqlar, maqollarni o‘qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Kitobning o‘quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.

4. Kitob tanlashda o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o‘qishi hisobga olinadi.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyiliga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to‘g‘ri tanlash sinfdan tashqari o‘qish muvaffaqiyatini ta’minalashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga mos holda aqlan yetuk, jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash biz o‘qituvchilarlar, ustozlar zimmasidadir. O‘qituvchi sinfdan tashqari darsni tashkil etishda innovatsion metodlardan, qiziqarli ma’lumotlardan, turli mavzuga mos ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi kerak bo‘ladi. Bugungi o‘quvchi bir nechta chet tillarni bilishga intiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi mavzu haqidagi ma’lumotlarni chet tillarida ham aytishi mumkin. Masalan, kitob haqidagi maqol yoki fikrlarni, kichik hajmdagi asarlarni nafaqat o‘zbek tilida balki rus yoki ingliz tilida ham so‘zlab beradi. O‘quvchilarga ham shunday topshiriq beradi. Bir o‘quvchi maqolni aytadi boshqa o‘quvchi tarjimasini aytishi mumkin.

O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda tanlangan asarni sahnalashtirishlari ham mumkin. O‘quvchilar rollarni o‘z xohishlari bilan tanlaydilar. Buni ikki xil usulda amalga oshirish mumkin:

1. O‘qituvchi bir nechta ertak, masal yoki hikoyani nomini e’lon qiladi. O‘quvchilar o‘zlarini mustaqil tanlab sahnalashtiradilar.

2. O'qituvchi turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tanish yoki notanish bo'lgan ertak, masal va hikoyalarning rasmlarni teskari qilib qo'yadi. O'quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo'linib, rasmni tanlab sahnalashtiradilar.

Bu nutqning rivojlanishiga, boladagi ijodkorlik, aktyorlik, rejissyorlik va suxandonlik qobiliyatlarini shakllanishiga va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga olib keladi. Hattoki sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan (tomoshabin) bolaning ham xotirasiga muhrlanadi.

Bundan tashqari o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishslash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Natija va muhokamalar. O'quvchilar nutqini o'stirish nafaqat ona tili balki boshqa barcha fanlardan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgini bildiradigan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, shakl yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar

O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalni, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur.

Ma'lumki, boshlang'ich mактабда bolaning yetakchi faoliyati o'zin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'zgaradi. Bunday o'zgarish o'quv amaliyotiga ega bo'limgan ko'plab o'quvchilar tomonidan osonlikcha qabul qilinmaydi. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'zin va o'quv faoliyatini birlashtirishga imkon beradi. Bu faoliyatning yengil tarafga o'zgarishini ta'minlaydi, o'qitish esa noan'anaviy va qiziqarli bo'ladi. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali o'quvchining rivojlanishidagi dolzarb muammolaridan biri bo'lgan nutqning rivojlanish darajasi birinchi o'ringa chiqadi. O'quvchilarning bilimlarni qanchalik keng egallashi nutqning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'limda AKTdan foydalanish o'qituvchining faoliyatiga yangicha nazar bilan qarashga, uslubiy texnikani qayta ko'rib chiqishga, bilim va ko'nikmalarini boyitishga, bolalarda to'g'ri nutq ko'nikmalarini rivojlantirish dinamikasini va umuman butun o'quv jarayonini faollashtirishga imkon beradi

Zamonaviy axborot jamiyatida ta'limning maqsadi oldingi avlodlar tomonidan to'plangan tajribani yetkazishgina emas, balki o'rganganlarini amaliy faoliyatda qo'llashga, vaziyatlarda muammolarga tog'ri yechim topishga o'rgatishdir. Axir, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish inson faoliyati samaradorligini oshirishga va uni yanada xilma-xil qilishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, AKTni o'quv jarayoniga kiritish nafaqat zamonaviy bolalarga zamon bilan hamnafas bo'lishga imkon beradi, balki o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi, kognitiv motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarinining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi.

- 110 Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallahsha ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiy tilini egallahslari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq.

Darslarni Turli metodlar, didaktik o'yinlar va AKT vositalari bilan olib borish bolalarining aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022
- 2.Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta"lim saboqlari" Toshkent 2014
- 3.D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
- 4.Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi. 1995. 80-b
- 5.Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari
- 6.Turimbetova, Z. B. (2024, April). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA NUTQNI O 'STIRISH METODIKASI. In *Konferensiylar/ Conferences* (Vol. 1, No. 9, pp. 234-237).
- 7.X.K Muhammadiyeva, & Go'Zal Ergasheva (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1 (2), 10-14.
- 8.Muftuna Bahromovna Zaripova (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nutq faoliyatni rivojlantirish usulbiy ko'rsatmalari. Science and Education, 4 (3), 412-421.